

## BALIQCCHILIK TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLI

**Shodiyev Bekzod To‘lqinovich,**  
**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**  
**dotsenti, i.f.f.d. (PhD),**  
**Aminov Shohjaxon Jaxongir o‘g‘li**  
**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**  
**magistranti**

**Аннотасија.** Мақоллада балиқчиллик тармоғ‘ини ривожлантириш истиқболи масаласи баён этилган. Балиқчиллик маҳсулотларни тайyorlash, қайта ишлаш ва сотиш тизимида қо‘шилган қиймат занжири динамикаси бо‘йича инновация фикрлар билдирилган.

**Калит со‘злар:** балиқ, ишлаб чиқариш, иқтисодий самара.

## ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫБНОЙ ОТРАСЛИ

*Шодиев Б.Т., доцент,*  
*кафедра «Инновационная экономика»*  
*Каршинский инженерно-экономический институт (г. Карши,*  
*Узбекистан)*  
*Аминов Ш.Ж.*  
*Каршинский инженерно-экономический институт*  
*магистрант*

**Аннотация.** В статье описываются перспективы развития рыбной отрасли. Были представлены инновационные идеи по динамике цепочки добавленной стоимости в системе заготовки, переработки и реализации рыбной продукции.

**Ключевые слова:** рыба, производство, экономическая эффективность.

## PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE FISHING INDUSTRY

**Shodiyev B.T., associate professor,**  
**Department of “Innovative Economics”**  
**Karshi Engineering and Economic Institute (Karshi, Uzbekistan)**  
**Aminov Sh.J.**  
**Karshi Engineering and Economic Institute**

**Annotation.** The article describes the prospects for the development of the fishing industry. Innovative ideas were presented on the dynamics of the value chain in the system of procurement, processing and sale of fish products.

**Key words:** fish, production, economic efficiency.

Tobora ko‘payib borayotgan aholi ehtiyojlariga mos ravishda sifatli hamda to‘yimli iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bugun barcha davlatlar uchun dolzarb masalalardan sanaladi. Bunda baliqchilik o‘ziga xos o‘rin tutadi. U alohida ahamiyatga ega soha hisoblanadi. “ ... rivojlangan mamlakatlarda aholi jonboshiga bir yilda iste‘mol qilinadigan baliq go‘shti o‘rtacha 25-45 kilogramm bo‘lib, jahon bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 22 kilogrammni tashkil etadi. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti xulosasiga ko‘ra, har bir inson bir yilda o‘rtacha 12-16 kilogramm baliq go‘shti iste‘mol qilishi talab etiladi”<sup>1</sup>. Dunyo bo‘yicha baliq mahsulotlarining 86,1 foizi Osiyoda, 7,8 foizi Yevropada, 4,4 foizi Amerikada, 1,3 foizi Afrikada yetishtirilib, baliq eksporti hajmining yarmidan ortiqrog‘i rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda baliq yetishtirishning tashkiliy-texnologik jarayonlarini tizimli tashkil etish, baliq chavoqlarini takror ko‘paytirish va ozuqa bazasini yaxshilash, tabiiy va sun‘iy suv havzalaridan oqilona foydalanish, baliq mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu baliqchilik, shuningdek, uning mahsulotlarini qayta ishlash rivojlanishiga olib kelmoqda. Chunonchi, “ ... hosildorligi past bo‘lgan 31 ming gektar sun‘iy suv havzalarini bosqichma-bosqich intensivlashtirish va baliq yetishtirish hosildorligini 4-5 barobarga oshirish”<sup>3</sup> qayd etilgan. Shu bois bugungi kunda baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy jihatlarini o‘rganish, tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

---

<sup>1</sup><https://yuz.uz/news/baliqchilik-kooperatsiya--samaradorlik-va-istiqbol-rivojini-belgilaydi>

<sup>2</sup>Shohimardonov D. Dunyo baliqchiligi. // O‘zbekiston qishloqxo‘jaligi. – 2008, №5. – 17-bet.

<sup>3</sup>2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili» da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/5841063>

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Qishloq xo'jaligida muhim tarmoqlardan biri hisoblangan baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish, baliqchilik va baliq ovlash tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish, baliq mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, tabiiy va sun'iy suv havzalaridan oqilona foydalanish, shuningdek, baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarini joriy etish maqsadida 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Baliqchilik tarmog‘i oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tufayli mamlakat iqtisodiyotining tarkibida baliqchilik ulushi izchil ortib bormoqda.

Shu bilan birga, baliqchilik tarmog‘ida hanuzgacha ko‘plab kamchilik va muammolar saqlanib qolmoqda, ularni samarali hal etish ishchanlik faolligini oshirish, investitsiyalarni jalb etish, baliq yetishtirish uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi.

Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar va ishlanmalar sifatini oshirish, ularning natijalarini amaliyotga keng joriy etish maqsadida 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-son «Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

Respublikada baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash, baliqchilik va baliq ovlash xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joriy etilishini ta‘minlash maqsadida 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816-son “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish, baliq mahsulotlari turlarini ko‘paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish hamda baliqchilik xo‘jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83 sonli “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari va ushbu faoliyatga mansub boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://yuz.uz/news/baliqchilik-kooperatsiya--samaradorlik-va-istiqbol-rivojini-belgilaydi>
2. Shohimardonov D. Dunyo baliqchiligi. // O‘zbekiston qishloqxo‘jaligi. – 2008, №5. – 17-bet.
3. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili» da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/5841063>